

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA KOREYS TILINI O'RGANISH METODLAR

Muhammadova Aziza Ilhom qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi fakulteti Koreys tili yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada koreys tilini o'rganishda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ilmiy asoslari, metodlari va pedagogik ahamiyati tahlil qilinadi. SI asosidagi platformalar, mobil ilovalar va chatbotlar orqali o'quvchilarning til kompetensiyasi, talaffuz, nutq va yozma ko'nikmalarini shakllantirishning samarali usullari ko'rib chiqiladi. Maqolada shuningdek, texnologiyaning afzallik va cheklovlari, hamda koreys tilining fonetik, morfologik va semantik xususiyatlariga misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, koreys tili, til kompetensiyasi, NLP, chatbot, lingvistik, fonetika

Abstract. This paper provides a comprehensive analysis of the scientific foundations, methodologies, and pedagogical significance of leveraging Artificial Intelligence (AI) technologies in the acquisition of the Korean language. It examines the efficacy of AI-driven platforms, mobile applications, and conversational chatbots in cultivating linguistic proficiency, with a particular focus on enhancing phonetic accuracy, oral fluency, and orthographic skills. Furthermore, the study explores the integration of Natural Language Processing (AI-based NLP) in addressing the unique phonetic, morphological, and semantic complexities inherent to the Korean language. The research synthesizes both the transformative advantages and the inherent limitations of these technological interventions in modern linguistics.

Keywords: artificial intelligence, Korean language, linguistic competence, NLP, chatbots, linguistics, phonetics.

Аннотация. В данной статье анализируются научные основы, методы и педагогическая значимость технологий искусственного интеллекта (ИИ) в обучении корейскому языку. Рассматриваются эффективные способы формирования языковых компетенций, навыков произношения, устной и письменной речи учащихся посредством платформ на базе ИИ, мобильных приложений и чат-ботов. В статье также исследуются преимущества и ограничения данных технологий, приводятся примеры с учетом фонетических, морфологических и семантических особенностей корейского языка.

Ключевые слова: искусственный интеллект, корейский язык, языковая компетенция, NLP, чат-бот, лингвистика, фонетика.

Kirish. Koreys tili (한국어, Hangul) so'nggi yillarda global kommunikatsiyada katta e'tibor qozondi. An'anaviy til o'qitish metodlari bilan bir qatorda sun'iy intellekt texnologiyalari, xususan, Natural Language Processing (NLP) va interaktiv o'quv platformalari, o'rganish jarayonini yanada samarali qilmoqda (Kuk et al., 2021). SI texnologiyalari o'quvchining individual bilim darajasini aniqlab, moslashtirilgan topshiriqlar va tahliliy xulosalarni taqdim etadi.

Asosiy qism. Sun'iy intellekt — bu inson tafakkuriga xos jarayonlarni modellashtiruvchi texnologiya bo'lib, til o'rganishda bir qancha sohalarda qo'llaniladi. Jumladan, diagnostik testlarda ya'ni o'quvchining fonetik va grammatik xatolarini aniqlashda foydalaniladi. Bu orqali o'quvchilar xohlagan vaqtlari va joyida o'z

xatolarini tekshirib mavzuni yanada chuqurroq o'rganishga harakat qilishlari uchun yaxshi imkoniyat bo'ladi. Ikkinchidan, adaptiv ta'lim tizimlari esa topshiriqlar darajasini o'quvchining bilim darajasiga moslashtirishda va turli topshiriqlar yaratishda keng qo'llaniladi. Bu orqali o'qituvchilar talabalarining darajasiga mos mashqlar topishlari va ularning mavzuni to'liq o'zlashtirishiga yordam berishlari mumkin. Bundan tashqari, koreys tilida, masalan, talaffuzni o'rganishda o'quvchi "안녕하세요" (Annyeonghaseyo) so'zini to'g'ri talaffuz qilishi kerak. Bu borada esa sun'iy intellekt yordam bera oladi. SI tizimi ovoz spektrini tahlil qilib, noto'g'ri intonatsiyani aniqlaydi va foydalanuvchiga to'g'rilash bo'yicha ko'rsatma beradi (Lee, 2020).

Koreys tilini o'rganishda turli SI metodlari ham mavjud. Birinchisi, mobil ilovalar orqali o'rganish. SI asosidagi ilovalar (Duolingo, LingQ, LingoDeer) orqali ko'p tillarni o'rgansa bo'ladi. Ular foydalanuvchining xatolarini real vaqtda aniqlab ularni tuzatishda yordam beradi. Misol, o'quvchi "저는 학생입니다" (Chonin haksengimnida) jumlasini noto'g'ri grammatik shaklda yozsa, tizim to'g'ri shaklni ko'rsatadi.

Ikkinchisi, chatbotlar yordamida muloqot. Chatbotlar o'quvchini interaktiv suhbatga jalb qiladi. Masalan, "오늘 날씨 어때요?" (오늘 nalshi ottaeyo? – Bugun ob-havo qanday?) degan savolga foydalanuvchi javob beradi va SI tizimi nutqdagi xatolarni tahlil qiladi va xatolar bo'lsa uni to'g'irlab tushuntirib yana boshqa misollar keltirish orqali mustahkamlaydi.

Uchinchisi, talaffuzni yaxshilash texnologiyalari. Ovoz tanish tizimlari foydalanuvchi talaffuzini tahlil qiladi va koreys tilidagi murakkab undosh va unli tovushlarni yaxshilashga yordam beradi. Masalan, "ㄱ, ㅋ, ㆁ" tovushlarining farqini aniqlash va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatadi.

Avtomatik tarjima va matn tahlili. Tarjima vositalari (Google Translate, Papago) va NLP dasturlari orqali koreys matnlarini tahlil qilish mumkin. Bu foydalanuvchilarga matn semantikasi va konteksti bilan ishlash imkonini beradi.

Shu bilan bir qatorda SI dan foydalanishning bir qancha afzallik va kamchiliklari bor. Misol uchun afzalliklariga individual yondashuv va adaptiv ta'lim olish, tezkor xatolik aniqlash va tuzatish, nutq va yozma ko'nikmalarni interaktiv rivojlantirish kabilarni aytishimiz mumkin. Kamchiliklariga esa talabalarining texnologiyaga haddan tashqari bog'lanishi, jonli muloqot imkoniyatining cheklanishi, ba'zan talaffuz va semantik xatolarni noto'g'ri tahlil qilish va shunga o'xshash bir qancha misollar keltirishimiz mumkin.

Xulosa. Sun'iy intellekt koreys tilini o'rganishda samarali vosita bo'lib, til kompetensiyasini tez va sifatli rivojlantirishga yordam beradi. AI yordamida individual yondashuv, talaffuzni aniqlash, muloqot va matn tahlili imkoniyatlari kengayadi. Biroq, an'anaviy o'qitish metodlarini butunlay chetlab qo'ymaslik muhimdir. Kelajakda SI va til o'qitish integratsiyasi yanada rivojlanib, til o'rganish jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kuk, J., & Lee, S. (2021). Artificial Intelligence in Language Learning: Korean as a Foreign Language. Seoul University Press.
2. Lee, H. (2020). Pronunciation Training for Korean Learners using AI. Korean Linguistics Journal, 45(2), 112-130.

3. Godwin-Jones, R. (2018). Using Mobile Technology to Develop Language Skills and Cultural Understanding. *Language Learning & Technology*, 22(3), 1–17.
4. Jurafsky, D., & Martin, J. H. (2023). *Speech and Language Processing* (3rd ed.). Pearson Education.
5. Shin, G., & Kim, H. (2019). Adaptive Learning Systems in Foreign Language Education. *International Journal of Smart Education*, 6(4), 33–48.
6. Choi, Y., & Lee, K. (2022). The Role of Chatbots in Language Learning: A Case Study in Korean Education. *Computer Assisted Language Learning*, 35(5–6), 1021–1038.
7. Krashen, S. (1985). *The Input Hypothesis: Issues and Implications*. Longman.